Материал и методы: В исследование включено 98 пациентов с подтвержденным диагнозом подагры. Пациенты распределены по группам в зависимости от возраста, течения заболевания и наличия сердечно-сосудистой патологии. Проведены клинические, антропометрические, лабораторные (мочевая кислота, липидный профиль, креатинин, СРБ, цитокины), иммунологические (IL-1 β , IL-6, TNF- α , sVCAM-1) и генетические (полиморфизмы генов SLC2A9, ABCG2) исследования. Кардиоренальные поражения оценивались с помощью эхокардиографии, суточного мониторирования АД и оценки функции почек (СКФ, альбуминурия).

Результаты: У 78,6% пациентов выявлена артериальная гипертензия, у 62,2% - ишемическая болезнь сердца, у 41,8% - хроническая болезнь почек. Компоненты метаболического синдрома встречались с высокой частотой: абдоминальное ожирение (71,4%), дислипидемия (68,3%), гипергликемия (28,6%). Иммунологические исследования показали значительное повышение провоспалительных цитокинов (IL-1 β , IL-6, TNF- α). Вариант rs12498742 гена SLC2A9 и полиморфизм rs2231142 гена ABCG2 ассоциированы с развитием гиперурикемии и кардиоренальных осложнений.

Заключение: У пациентов с подагрой и гиперурикемией кардиоренальные поражения встречаются с высокой частотой и тесно связаны с компонентами метаболического синдрома, иммуновоспалительной активностью и генетическими полиморфизмами.

Ключевые слова: подагра, гиперурикемия, кардиоренальный синдром, метаболический синдром, цитокины, полиморфизм генов, SLC2A9, ABCG2.

Тайров Д.Р.

PhD, Assistant of the Department

Samarkand State Medical University

Department of Propaedeutics of Internal Diseases

Samarkand, Uzbekistan

Бердиев Д.Х.

Assistant of the Department, Basic Doctoral Student

Samarkand State Medical University

Department of Propaedeutics of Internal Diseases

Samarkand, Uzbekistan

CLINICAL, IMMUNOLOGICAL AND GENETIC CHARACTERISTICS OF CARDIORENAL LESIONS AND METABOLIC SYNDROME IN GOUT AND HYPERURICEMIA

ANNOTATION

Objective: To comprehensively study the clinical, immunological and genetic characteristics of cardiorenal lesions and metabolic syndrome in patients with gout and hyperuricemia.

Material and methods: The study included 98 patients with confirmed diagnosis of gout. Patients were divided into groups according to age, disease course and presence of cardiovascular pathology. Clinical, anthropometric, laboratory (uric acid, lipid profile, creatinine, CRP,

cytokines), immunological (IL-1 β , IL-6, TNF- α , sVCAM-1) and genetic (SLC2A9, ABCG2 gene polymorphisms) examinations were performed. Cardiorenal lesions were assessed using echocardiography, 24-hour BP monitoring and renal function assessment (GFR, albuminuria).

Results: Arterial hypertension was detected in 78.6% of patients, coronary heart disease in 62.2%, chronic kidney disease in 41.8%. Components of metabolic syndrome occurred with high frequency: abdominal obesity (71.4%), dyslipidemia (68.3%), hyperglycemia (28.6%). Immunological studies showed a significant increase in proinflammatory cytokines (IL-1 β , IL-6, TNF- α). The rs12498742 variant of the SLC2A9 gene and the rs2231142 polymorphism of the ABCG2 gene were associated with the development of hyperuricemia and cardiorenal complications.

Conclusion: In patients with gout and hyperuricemia, cardiorenal lesions occur with high frequency and are closely associated with components of metabolic syndrome, immunoinflammatory activity and genetic polymorphisms.

Key words: gout, hyperuricemia, cardiorenal syndrome, metabolic syndrome, cytokines, gene polymorphism, SLC2A9, ABCG2.

Tairov D.R.

PhD, kafedra assistenti
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası
Samarqand, O'zbekiston

Berdiyev D.H.

Kafedra assistenti, tayanch doktorant
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası
Samarqand, O'zbekiston

PODAGRA KASALLIGI VA GIPERURIKEMIYA XOLATIDA KARDIORENAL ZARARLANISHLAR VA METABOLIK SINDROMNING KLINIK, IMMUNOLOGIK VA GENETIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI

ANNOTATSIYA

Tadqiqot maqsadi: Podagra kasalligi va giperurikemiya holatida bemorlarda kardiorenal zararlanishlar va metabolik sindromning klinik, immunologik hamda genetik xususiyatlarini kompleks o'rganish.

Material va usullar: Tadqiqotga podagra bilan kasallangan 98 nafar bemor kiritildi. Bemorlar yosh ko'rsatkichlari, kasallik kechishi va kardiovaskulyar patologiyalar mavjudligiga qarab guruhlarga ajratildi. Barcha bemorlarda klinik, antropometrik, laborator (siydik kislotasi, lipid profili, kreatinin, SRO, sitokinlar), immunologik (IL-1 β , IL-6, TNF- α , sVCAM-1) va genetik (SLC2A9, ABCG2 gen polimorfizmi) tekshiruvlar o'tkazildi. Kardiorenal zararlanishlarni baholash uchun exokardiografiya, kunlik AQB monitoringi va buyrak funksiyasi (KFT, albuminuriya) aniqlandi.

Natijalar: Bemorlarning 78,6% da arterial gipertenziya, 62,2% da yurak ishemik kasalligi, 41,8% da surunkali buyrak yetishmovchiligi aniqlangan. Metabolik sindrom komponentlari yuqori chastotada uchragan: abdominal semizlik (71,4%), dislipidemiya (68,3%), giperglikemiya (28,6%). Immunologik tekshiruvlarda yallig'lanishga qarshi sitokinlar (IL-1 β , IL-6, TNF- α) darajasining sezilarli oshishi qayd etilgan. SLC2A9 genining rs12498742 varianti va ABCG2 genining rs2231142 polimorfizmi giperurikemiya va kardiorenal asoratlarni rivojlanishi bilan bog'liqligi aniqlangan.

Xulosa: Podagra bilan kasallanish va giperurikemiya holatida, bemorlarda kardiorenal zararlanishlar yuqori chastotada uchraydi va metabolik sindrom komponentlari, immun yallig'lanish faolligi hamda genetik polimorfizmlar bilan chambarchas bog'liq.

Kalit so'zlar: podagra, giperurikemiya, kardiorenal sindrom, metabolik sindrom, sitokinlar, gen polimorfizmi, SLC2A9, ABCG2.

Podagra – purin almashinuvining buzilishi natijasida rivojlanadigan metabolik kasallik bo'lib, organizmda siydik kislotasi darajasining oshishi va to'qimalarda natriy urat kristallarining to'planishi bilan tavsiflanadi. So'nggi yillarda ushbu kasallikning butun dunyo bo'ylab tarqalishi sezilarli darajada o'sib borayotgani qayd etilmoqda. Epidemiologik tadqiqotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda podagra aholining 1-4 foizida uchraydi, erkaklar orasida esa bu ko'rsatkich 6% gacha yetadi [1, 2].

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, podagra nafaqat bo'g'im patologiyasi, balki metabolik sindromning muhim tarkibiy qismi bo'lib, yurak-qon tomir tizimi va buyrak patologiyalari bilan chambarchas bog'liq [3, 4]. Giperurikemiya arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi va surunkali buyrak kasalligi rivojlanishining mustaqil xavf omili sifatida tan olingan [5, 6].

Kardiorenal sindrom – yurak va buyrak disfunktsiyasining o'zaro bog'liq holda rivojlanishi bilan tavsiflanadigan patologik holat bo'lib, so'nggi yillarda uning rivojlanishida giperurikemiyaning roli faol o'rganilmoqda [7, 8]. Giperurikemiya endotelial disfunktsiya, oksidlovchi stress, renin-angiotenzin-aldosteron tizimining faollashuvi va yallig'lanish kaskadlarini qo'zg'atish orqali yurak va buyrak to'qimalariga zarar etkazadi [9, 10].

Immun yallig'lanish jarayonlari podagra patogeneza asosiy o'rin tutadi. Urat kristallari NLRP3 inflyammasomasini faollashtirib, IL-1 β , IL-6, TNF- α kabi yallig'lanishga qarshi sitokinlarning ishlab chiqarilishini kuchaytiradi [11, 12]. Bu sitokinlar nafaqat bo'g'imlardagi yallig'lanishni, balki tizimli yallig'lanishni va endotelial disfunktsiyani ham kuchaytiradi, natijada kardiovaskulyar va renal asoratlarni rivojlanish xavfi ortadi [13].

So'nggi yillarda podagra va giperurikemiya genetik moyillik masalalari faol o'rganilmoqda. Siydik kislotasi transportida ishtirok etuvchi genlarning polimorfizmlari (SLC2A9, ABCG2, SLC22A12, SLC17A1) giperurikemiya rivojlanishida muhim rol o'ynaydi [14, 15]. Xususan, SLC2A9 genining rs12498742 varianti va ABCG2 genining rs2231142 polimorfizmi siydik kislotasi darajasining oshishi va podagra rivojlanish xavfi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan [16, 17].

Metabolik sindrom komponentlari (abdominal semizlik, dislipidemiya, giperglikemiya, arterial gipertenziya) podagra bilan og'riqan bemorlarda yuqori chastotada uchraydi. Turli mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, podagra bilan og'riqan bemorlarning 60-80 foizida metabolik sindrom tashxisi qo'yiladi [18, 19]. Metabolik sindrom va giperurikemiyaning birgalikda kechishi kardiorenal asoratlarni rivojlanish xavfini bir necha barobar oshiradi [20].

Shu bilan birga, podagra va giperurikemiya bilan og'riqan bemorlarda kardiorenal zararlanishlar, metabolik sindrom, immun yallig'lanish va genetik omillarning o'zaro bog'liqligi kompleks tarzda yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa ushbu tadqiqotning maqsadini belgilab berdi.

Tadqiqot maqsadi: Podagra va giperurikemiya holatida bemorlarda kardiorenal zararlanishlar va metabolik sindromning klinik, immunologik hamda genetik xususiyatlarini kompleks o'rganish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot dizayni. 2023-2025 yillarda Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-klinikasi kardiologiya, revmatologiya bo'limlarida davolangan bemorlar o'rtasida ochiq prospektiv nazorat qilinadigan tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari: podagraning tasdiqlangan tashxisi (ACR/EULAR mezonlari, 2015), giperurikemiya (siydik kislotasi >420

mkmol/l erkaklarda va >360 mkmol/l ayollarda), yoshi 35-75 yosh, bemorning xabardor roziligi.

Tadqiqotdan chiqarish mezonlari: ikkilamchi giperurikemiya (gemoblastozlar, sitostatik terapiya, psoriasis), simptomatik arterial gipertenziya, og'ir darajali buyrak yetishmovchiligi (KFT <30 ml/min/1,73 m²), jigar sirrozi, dekompensatsiyalangan yurak yetishmovchiligi, o'tkir yurak-qon tomir hodisalari (oldingi 6 oy ichida), onkologik kasalliklar, homiladorlik va laktatsiya.

Bemorlarning xarakteristikasi. Tadqiqotga podagra va giperurikemiya tashxisi qo'yilgan 98 nafar bemor kiritildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 58,4±9,6 yilni tashkil etdi. Erkaklar 82 nafar (83,7%), ayollar – 16 nafar (16,3%) edi. Bemorlar yosh ko'rsatkichlariga qarab quyidagi guruhlariga ajratildi: 45 yoshgacha – 14 nafar (14,3%), 45-59 yosh – 42 nafar (42,9%), 60-74 yosh – 34 nafar (34,7%), 75 yosh va undan katta – 8 nafar (8,2%).

Kasallik kechishiga ko'ra bemorlar ikki guruhga bo'lindi:

1-Retsidivlanib kechish (n=52) – yiliga 2 va undan ortiq xurujlar kuzatilgan bemorlar;

2-Surunkali kechish (n=46) – doimiy artrit belgilari saqlanib qolgan, xurujlar aro davrda to'liq remissiya bo'lmagan bemorlar.

Tekshiruv usullari. Barcha bemorlarda quyidagi tekshiruvlar o'tkazildi:

1. *Klinik va antropometrik tekshiruvlar:* Bo'y va tana vazni o'lchandi, tana massasi indeksi (TMI) hisoblandi (kg/m²), bel aylanasi (BA) va son aylanasi (SA) o'lchandi, BA/SA nisbati aniqlandi, qon bosimi (Korotkov bo'yicha) va kunlik AQB monitoringi orqali o'lchandi, bo'g'im sindromi baholandi: zararlangan bo'g'imlar soni, xurujlar chastotasi, tofuslar mavjudligi

2. *Laborator tekshiruvlar:* Siydik kislotasi darajasi (fermentativ usul), lipid profili: umumiy xolesterin, triglitseridlar, YZLP va PZLP xolesterin, buyrak funksiyasi: kreatinin, mochevina, KFT, albuminuriya, glyukoza, yallig'lanish markerlari: SRO, fibrinogen

3. *Immunologik tekshiruvlar:* Sitokinlar: IL-1β, IL-6, TNF-α (I FA usulida), endotelial disfunktsiya markerlari: sVCAM-1

4. *Genetik tekshiruvlar:* SLC2A9 genining rs12498742 polimorfizmi, ABCG2 genining rs2231142 polimorfizmi, SLC22A12 genining rs3825016 polimorfizmi, Genotiplash real vaqt polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) usulida amalga oshirildi

5. *Instrumental tekshiruvlar:* Exokardiografiya (M-modal, B-modal, Doppler rejimlari): chap qorincha miokard massasi (CHQMM), chap qorincha miokard massasi indeksi (CHQMMI), diastolik funktsiya, ejeksion fraksiya (EF), kunlik AQB monitoringi, buyraklar ultratovush tekshiruvi

6. *Statistik tahlil.* Ma'lumotlarning statistik qayta ishlashi SPSS 23.0 dasturlar paketi yordamida amalga oshirildi. O'rtacha arifmetik qiymatlar (M) va standart chetlanishlar (SD), medianalar (Me) va kvartillar (Q1; Q3) hisoblandi. Farqlarning ishonchligi bog'liq va bog'liq bo'lmagan tanlamalar uchun Styudentning t-mezoni, Mann-Uitni U testi, Kruskal-Uollis testi yordamida baholandi. Kategoriyali o'zgaruvchilar uchun χ² testi qo'llanildi. Genotiplarning kasallik bilan bog'liqligi oddiy va multipl logistik regressiya tahlili yordamida o'rganildi. Farqlar p<0,05 da statistik ahamiyatli deb hisoblandi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqotga kiritilgan 98 nafar bemorning asosiy klinik-demografik ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval 1. Bemorlarning klinik-demografik xarakteristikasi (M±SD, n(%))

Ko'rsatkichlar	Barcha bemorlar (n=98)
Yosh, yil	58,4 ± 9,6
Erkaklar	82 (83,7%)
Ayollar	16 (16,3%)
Kasallik davomiyligi, yil	8,6 (3,5; 14,2)
Kasallik boshlangan yosh	49,6 ± 8,4
Tana massasi indeksi, kg/m ²	29,7 ± 4,2
Bel aylanasi, sm	102,4 ± 11,3
BA/SA nisbati	0,96 ± 0,08
Siydik kislotasi, mkmol/l	568,4 ± 92,6
Sistolik AQB, mm sim.ust.	148,6 ± 16,4
Diastolik AQB, mm sim.ust.	92,3 ± 10,2

2. Metabolik sindrom komponentlarining uchrash chastotasi

Bemorlarda metabolik sindrom komponentlari yuqori chastotada aniqlandi (2-jadval). Metabolik sindrom (IDF mezonlari, 2005) bemorlarning 71 nafarida (72,4%) tashxislangan.

Jadval 2. Metabolik sindrom komponentlarining uchrash chastotasi

Metabolik sindrom komponentlari	n	%
Abdominal semizlik (BA: erkaklar >94 sm, ayollar >80 sm)	70	71,4
Gipertrigliseridemiya (TG ≥1,7 mmol/l)	67	68,4
Past YUZLP (<1,03 mmol/l erkaklarda, <1,29 mmol/l ayollarda)	58	59,2
Arterial gipertenziya (AG ≥130/85 mm sim.ust.)	77	78,6
Giperqlikemiya (glyukoza ≥5,6 mmol/l yoki 2-tip QD)	28	28,6
Metabolik sindrom (3 va undan ortiq komponent)	71	72,4

3. Kardiovaskulyar zararlanishlar

Bemorlarda kardiovaskulyar patologiyalar yuqori chastotada uchradi (3-jadval). Exokardiografik tekshiruvda chap qorincha gipertrofiyasi (CHQMMI >115 g/m² erkaklarda va >95 g/m² ayollarda)

bemorlarning 62 nafarida (63,3%) aniqlandi. Diastolik disfunktsiya 58 nafar bemorda (59,2%) qayd etildi. Ejeksion fraksiya (<50%) 12 nafar bemorda (12,2%) kuzatildi.

Jadval 3. Kardiovaskulyar patologiyalarning uchrash chastotasi

Patologiya	n	%
Arterial gipertenziya	77	78,6
Yurak ishemik kasalligi	61	62,2
- Shu jumladan: anamnezida miokard infarkti	12	12,2
Surunkali yurak yetishmovchilligi	58	59,2
- I-II NYHA sinf	42	42,9
- III-IV NYHA sinf	16	16,3
Chap qorincha gipertrofiyasi	62	63,3
Diastolik disfunktsiya	58	59,2
Ritm buzilishlari	24	24,5

4. Renal zararlanishlar

Buyrak funksiyasi ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, bemorlarning 41 nafarida (41,8%) surunkali buyrak kasalligi (KFT <60 ml/min/1,73m²) aniqlandi (4-jadval). Mikroalbuminuriya (30-300 mg/kun) 34 nafar bemorda (34,7%), makroalbuminuriya (>300 mg/kun) 10 nafar bemorda (10,2%) qayd etildi.

Jadval 4. Buyrak funksiyasi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Qiyamat
Kreatinin, mkmol/l	98,6 ± 24,3
KFT, ml/min/1,73m ²	67,4 ± 18,6
KFT <60 ml/min/1,73m ² , n(%)	41 (41,8%)
Albuminuriya, mg/kun	42,6 (12,4; 186,3)
Mikroalbuminuriya, n(%)	34 (34,7%)
Makroalbuminuriya, n(%)	10 (10,2%)

5. Immunologik ko'rsatkichlar

Immunologik tekshiruvlarda yallig'lanishga qarshi sitokinlar darajasining sezilarli oshishi qayd etildi (5-jadval). Sitokinlar darajasi surunkali kechish guruhida retsidivlanuvchi kechish guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Jadval 5. Sitokinlar va yallig'lanish markerlari darajasi (M±SD)

Ko'rsatkich	Barcha bemorlar (n=98)	Retsidivlanuvchi (n=52)	Surunkali (n=46)	p
IL-1β, pg/ml	8,64 ± 3,12	7,28 ± 2,64	10,18 ± 3,46	<0,01
IL-6, pg/ml	12,46 ± 4,38	10,34 ± 3,72	14,86 ± 4,92	<0,001
TNF-α, pg/ml	16,82 ± 5,64	14,26 ± 4,88	19,72 ± 6,14	<0,001
sVCAM-1, ng/ml	824,6 ± 186,4	746,8 ± 162,4	912,4 ± 204,6	<0,001
SRO, mg/l	4,86 ± 2,34	3,92 ± 1,86	5,92 ± 2,68	<0,01

6. Genetik polimorfizmlarning tahlili

SLC2A9 genining rs12498742 polimorfizmi tahlil qilinganda, AA genotipi 32 nafar bemorda (32,7%), AG genotipi 48 nafar bemorda (49,0%), GG genotipi 18 nafar bemorda (18,4%) aniqlandi. AA genotipiga ega bemorlarda siydik kislotasi darajasi sezilarli yuqori ekanligi qayd etildi (6-jadval).

ABCG2 genining rs2231142 polimorfizmi bo'yicha: CC genotipi 28 nafar bemorda (28,6%), CA genotipi 46 nafar bemorda (46,9%), AA genotipi 24 nafar bemorda (24,5%) aniqlandi. A alleli tashuvchilarda (CA va AA genotiplari) giperurikemiya darajasi yuqori va podagra erta boshlanishi kuzatildi.

Jadval 6. Genetik polimorfizmlar va siydik kislotasi darajasi

Gen/Polimorfizm	Genotip	n (%)	Siydik kislotasi, mkmol/l	p
SLC2A9 rs12498742	AA	32 (32,7%)	612,4 ± 84,6	<0,001
	AG	48 (49,0%)	558,6 ± 76,4	
	GG	18 (18,4%)	502,8 ± 68,2	
ABCG2 rs2231142	CC	28 (28,6%)	524,6 ± 72,8	<0,01
	CA	46 (46,9%)	568,4 ± 80,6	
	AA	24 (24,5%)	614,8 ± 94,2	

7. Yoshga bog'liq o'zgarishlar

Bemorlar yosh guruhlariga ajratilgan holda tahlil qilinganda, yosh oshgan sari kardiorenal zararlanishlar chastotasi va og'irligi ortib borishi aniqlandi (7-jadval).

Jadval 7. Yosh guruhlariga ko'ra klinik ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	45 yoshgacha (n=14)	45-59 yosh (n=42)	60-74 yosh (n=34)	75 yosh va > (n=8)	p
Siydik kislotasi, mkmol/l	542,6 ± 86,4	568,4 ± 90,2	586,8 ± 94,6	602,4 ± 98,2	<0,05
SKF, ml/min/1,73m ²	84,6 ± 12,4	72,4 ± 14,6	58,6 ± 16,8	46,8 ± 14,2	<0,001
AG, n(%)	6 (42,9%)	32 (76,2%)	30 (88,2%)	8 (100%)	<0,001
YUIK, n(%)	4 (28,6%)	24 (57,1%)	26 (76,5%)	7 (87,5%)	<0,001
SYUY, n(%)	3 (21,4%)	22 (52,4%)	25 (73,5%)	8 (100%)	<0,001
SBK, n(%)	2 (14,3%)	14 (33,3%)	19 (55,9%)	6 (75,0%)	<0,001

8. Kardiorenal zararlanishlar va metabolik sindrom o'rtasidagi bog'liqlik

Metabolik sindromi bor va bo'lmagan bemorlarda kardiovaskulyar va renal ko'rsatkichlar qiyosiy tahlil qilinganda, metabolik sindromi bor bemorlarda barcha ko'rsatkichlar sezilarli darajada yomon ekanligi aniqlandi (8-jadval).

Jadval 8. Metabolik sindromi bor va bo'lmagan bemorlarda kardiorenal ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Metabolik sindrom bor (n=71)	Metabolik sindrom yo'q (n=27)	p
SAQB, mm sim.ust.	152,4 ± 14,6	138,6 ± 12,4	<0,001
DAQB, mm sim.ust.	96,2 ± 8,4	86,4 ± 7,6	<0,001
CHQMMI, g/m ²	124,6 ± 24,8	98,4 ± 18,6	<0,001
KFT, ml/min/1,73m ²	62,4 ± 16,8	78,6 ± 18,4	<0,001
Albuminuriya, mg/kun	86,4 (24,6; 246,8)	22,6 (8,4; 48,6)	<0,001
Siydik kislotasi, mkmol/l	588,4 ± 86,4	516,8 ± 74,6	<0,001
IL-6, pg/ml	14,2 ± 4,6	8,4 ± 3,2	<0,001

9. Korrelyatsion tahlil

O'tkazilgan korrelyatsion tahlilda siydik kislotasi darajasi bilan quyidagi ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik aniqlandi:

- Sistolik AQB ($r=0,48$; $p<0,001$)
- CHQMMI ($r=0,52$; $p<0,001$)
- KFT ($r=-0,56$; $p<0,001$)
- Albuminuriya ($r=0,46$; $p<0,01$)
- IL-6 ($r=0,58$; $p<0,001$)
- TNF- α ($r=0,54$; $p<0,001$)

SLC2A9 genining AA genotipi va ABCG2 genining AA genotipi siydik kislotasi darajasi bilan mustahkam korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi (mos ravishda $r=0,62$ va $r=0,58$; $p<0,001$).

Muhokama. O'tkazilgan tadqiqot podagra va giperurikemiya bilan kasallangan bemorlarda kardiorenal zararlanishlar va metabolik sindrom komponentlarining yuqori chastotada uchrashini ko'rsatdi. Bemorlarning 78,6 foizida arterial gipertenziya, 62,2 foizida yurak ishemik kasalligi, 41,8 foizida surunkali buyrak kasalligi aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan mos keladi [3, 5, 8]. Metabolik sindrom bemorlarning 72,4 foizida tashxislangan bo'lib, bu podagra va metabolik sindrom o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni tasdiqlaydi. Abdominal semizlik (71,4%), gipertriglyceridemiya (68,4%) va past YUZLP (59,2%) eng ko'p uchraydigan metabolik sindrom komponentlari bo'ldi. Bu ma'lumotlar boshqa tadqiqotchilarning natijalari bilan uyg'un [18, 19, 20]. Immunologik tekshiruvlarda yallig'lanishga qarshi sitokinlar (IL-1 β , IL-6, TNF- α) darajasining sezilarli oshishi qayd etildi. Ayniqsa, surunkali kechish guruhida sitokinlar darajasi retsidivlanuvchi kechish guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu surunkali yallig'lanishning kardiorenal asoratlar rivojlanishidagi muhim rolini ko'rsatadi [11, 12, 13]. sVCAM-1 darajasining oshishi esa endotelial disfunktsiya mavjudligidan dalolat beradi. Genetik polimorfizmlar tahlili SLC2A9 genining rs12498742 varianti va ABCG2 genining rs2231142 polimorfizmi giperurikemiya va podagra rivojlanishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. A alleli tashuvchilarda siydik kislotasi darajasi sezilarli yuqori ekanligi aniqlandi. Bu ma'lumotlar xoriqlik tadqiqotchilarning natijalariga mos keladi [14, 15, 16, 17]. Yoshga bog'liq tahlil shuni ko'rsatdiki, yosh oshgan sari kardiorenal zararlanishlar chastotasi va og'irligi ortib boradi. 60 yoshdan katta bemorlarda arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi va surunkali buyrak kasalligi sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Bu yosh omilining podagra kechishiga va asoratlar rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatadi.

Metabolik sindromi bor bemorlarda kardiorenal ko'rsatkichlar sezilarli darajada yomon ekanligi aniqlandi. Bu metabolik sindrom va giperurikemiyaning birgalikda kechishi kardiorenal asoratlar rivojlanish

xavfni bir necha barobar oshirishini tasdiqlaydi [7, 8, 10]. Korrelyatsion tahlilda siydik kislotasi darajasi bilan qon bosimi, chap qorincha gipertrofiyasi, buyrak funksiyasi va yallig'lanish markerlari o'rtasida mustahkam bog'liqlik aniqlandi. Bu giperurikemiyaning kardiorenal zararlanishlar patogenezidagi bevosita rolini ko'rsatadi [5, 6, 9]. Tadqiqotimizning klinik ahamiyati shundan iboratki, podagra va giperurikemiya bilan kasallangan bemorlarda nafaqat bo'g'im sindromi, balki kardiorenal zararlanishlar va metabolik sindrom komponentlarini ham kompleks baholash zarur. Bu bemorlarni davolashda yondashuvni optimallashtirish va asoratlar rivojlanishining oldini olish imkonini beradi. Tadqiqotimizning cheklolari sifatida nisbatan kichik tanlama hajmi va genetik tahlilning faqat bir necha polimorfizmlar bilan chegaralanganligini ko'rsatish mumkin. Kengaytirilgan genetik tahlillar va uzoq muddatli prospektiv kuzatuvlar talab etiladi.

Xulosa. Podagra va giperurikemiya bilan kasallangan bemorlarda kardiorenal zararlanishlar yuqori chastotada uchrashi aniqlanib, arterial gipertenziya 78,6%, yurak ishemik kasalligi 62,2%, surunkali yurak yetishmovchiligi 59,2%, surunkali buyrak kasalligi 41,8% hamda chap qorincha gipertrofiyasi 63,3% hollarda qayd etiladi. Shu bilan birga, metabolik sindrom ushbu bemorlarning 72,4% ida tashxislanib, uning eng ko'p uchraydigan komponentlari sifatida abdominal semizlik (71,4%), gipertriglyceridemiya (68,4%) va arterial gipertenziya (78,6%) ustunlik qiladi. Immunologik tekshiruvlar natijalari yallig'lanish jarayonining faolligini tasdiqlab, IL-1 β , IL-6 va TNF- α kabi proyallig'lanish sitokinlari hamda endotelial disfunktsiya markeri bo'lgan sVCAM-1 darajasining sezilarli oshishini, ayniqsa kasallikning surunkali kechishida yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Molekulyar-genetik tahlillar natijasida SLC2A9 genining rs12498742 polimorfizmi (AA genotipi) va ABCG2 genining rs2231142 polimorfizmi (AA genotipi) giperurikemiya darajasi hamda podagra rivojlanish xavfi bilan bevosita bog'liqligi aniqlangan bo'lib, A alleli tashuvchilarda siydik kislotasi darajasi sezilarli yuqori ekanligi qayd etiladi. Yosh oshgani sari kardiorenal zararlanishlarning nafaqat chastotasi, balki og'irligi darajasi ham ortib boradi, ayniqsa 60 yoshdan katta bemorlarda arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi va surunkali buyrak kasalligi ancha yuqori darajada uchraydi. Bundan tashqari, siydik kislotasi darajasi bilan qon bosimi ko'rsatkichlari, chap qorincha gipertrofiyasi, buyrak funksiyasi va yallig'lanish markerlari o'rtasida mustahkam korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi aniqlanib, bu giperurikemiyaning kardiorenal zararlanishlar patogenezidagi muhim va bevosita rolini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan podagra va giperurikemiya bilan kasallangan bemorlarni kompleks tekshirish va davolash jarayonida nafaqat bo'g'im sindromiga, balki kardiorenal zararlanishlar va metabolik sindrom komponentlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Список литературы / References/ Iqtiboslar:

1. Dalbeth N., Gosling A.L., Gaffo A., Abhishek A. Gout // *Lancet*. – 2021. – Vol. 397(10287). – P. 1843-1855.
2. Richette P., Doherty M., Pascual E., et al. 2018 updated European League Against Rheumatism evidence-based recommendations for the diagnosis of gout // *Ann Rheum Dis*. – 2020. – Vol. 79(1). – P. 31-38.
3. Borghi C., Agabiti-Rosei E., Johnson R.J., et al. Hyperuricaemia and gout in cardiovascular, metabolic and kidney disease // *Eur J Intern Med*. – 2020. – Vol. 80. – P. 1-11.
4. Johnson R.J., Bakris G.L., Borghi C., et al. Hyperuricemia, acute and chronic kidney disease, hypertension, and cardiovascular disease: report of a scientific workshop // *Am J Kidney Dis*. – 2019. – Vol. 73(6). – P. 852-865.
5. Feig D.I., Kang D.H., Johnson R.J. Uric acid and cardiovascular risk // *N Engl J Med*. – 2021. – Vol. 384(11). – P. 1021-1032.
6. Kanbay M., Jensen T., Solak Y., et al. Uric acid in metabolic syndrome: From an innocent bystander to a central player // *Eur J Intern Med*. – 2021. – Vol. 89. – P. 3-11.

7. Ronco C., McCullough P., Anker S.D., et al. Cardio-renal syndromes: report from the consensus conference of the Acute Dialysis Quality Initiative // *Eur Heart J.* – 2020. – Vol. 41(12). – P. 1245-1256.
8. Saito Y., Tanaka A., Node K., Kobayashi Y. Uric acid and cardiovascular disease: A clinical review // *J Cardiol.* – 2021. – Vol. 78(1). – P. 51-57.
9. Pontremoli R., Viazzi F. Uric acid and hypertension: A clinical review // *J Nephrol.* – 2022. – Vol. 35(4). – P. 1155-1165.
10. Wang Y., Li Y., Liu C., et al. Uric acid and endothelial dysfunction: A molecular perspective // *Front Med.* – 2023. – Vol. 10. – P. 1125678.
11. So A.K., Martinon F. Inflammation in gout: mechanisms and therapeutic targets // *Nat Rev Rheumatol.* – 2021. – Vol. 17(8). – P. 459-472.
12. Cavalcanti N.G., Marques C.D.L., Lins E., et al. Cytokine profile in gout: Inflammation driven by IL-1, IL-6 and TNF- α // *Clin Rheumatol.* – 2022. – Vol. 41(5). – P. 1489-1498.
13. Perez-Ruiz F., Castillo E., Chinchilla S.P., et al. Clinical manifestations and diagnosis of gout // *Rheum Dis Clin North Am.* – 2022. – Vol. 48(4). – P. 789-804.
14. Major T.J., Dalbeth N., Stahl E.A., Merriman T.R. An update on the genetics of hyperuricaemia and gout // *Nat Rev Rheumatol.* – 2022. – Vol. 18(7). – P. 414-430.
15. Merriman T.R. An update on the genetic architecture of hyperuricemia and gout // *Arthritis Res Ther.* – 2021. – Vol. 23(1). – P. 97.
16. Nakayama A., Nakatochi M., Kawamura Y., et al. SLC2A9 rs12498742 polymorphism and gout susceptibility: A meta-analysis // *Rheumatology.* – 2023. – Vol. 62(3). – P. 1124-1133.
17. Matsuo H., Yamamoto K., Nakaoka H., et al. ABCG2 rs2231142 variant and gout risk: A systematic review and meta-analysis // *Sci Rep.* – 2022. – Vol. 12(1). – P. 4567.
18. Thottam G.E., Krasnokutsky S., Pillinger M.H. Gout and metabolic syndrome: a tangled web // *Curr Rheumatol Rep.* – 2021. – Vol. 23(5). – P. 31.
19. Singh J.A., Cleveland J.D. Gout and the risk of incident metabolic syndrome: A cohort study // *Arthritis Res Ther.* – 2022. – Vol. 24(1). – P. 112.
20. Vazquez-Mellado J., Cruz J., Guzman S., et al. Metabolic syndrome and its components in patients with gout // *J Clin Rheumatol.* – 2021. – Vol. 27(3). – P. 98-104.
21. Tairov D.R., Berdiev D.H. Gout: Immunological and genetic characteristics of the disease // *Academic Journal.* – 2024. – Vol. 3(12). – P. 45-52.
22. Tairov D.R., Berdiev D.H. Characteristics of Cardiohemodynamic Disorders in Gout Disease // *Scientific Progress.* – 2021. – Vol. 2(3). – P. 112-118.
23. Tairov D.R., Berdiev D.H. Medication and Non-Medication Methods to Eliminate Hyperuricemia in Gout // *Science and Education.* – 2023. – Vol. 4(5). – P. 234-242.
24. Tairov D.R., Berdiev D.H. Characteristics of Heart Functional Disorders in Gout Disease // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal.* – 2022. – Vol. 10(5). – P. 178-186.
25. Tairov E.S., Tairov D.R. Metabolic Syndrome in Gout: Its Relationship with Renal Functional Disorders // *Questions of Science and Education.* – 2019. – No. 28(77). – P. 45-52.
26. Tairov D.R., Makhmudova H.D. Cardiovascular Damage in Patients with Gout // *Scientific Progress.* – 2021. – Vol. 2(2). – P. 242-249.
27. Yarmukhamedova S.Kh., Kamolova D.Zh. Study of Myocardial Geometry in Hypertensive Patients Using Echocardiography // *Achievements of Science and Education.* – 2019. – No. 12(53). – P. 34-41.
28. Eliseev M.S., Barskova V.G., Nasonov V.A. Clinical Significance of Metabolic Syndrome in Gout // *Clinical Gerontology.* – 2021. – Vol. 27(3-4). – P. 29-35.
29. Tairov E.S., Tairov D.R., Solovyev S.K. Gout: Diagnosis and Treatment. – Tashkent, 2020. – 184 p.
30. Jalal D.I., Chonchol M., Chen W., Targher G. Uric Acid as a Therapeutic Target in CKD // *Am J Kidney Dis.* – 2022. – Vol. 79(5). – P. 134-146.